

DAVLAT BYUDJETI VA IQTISODIY SIYOSAT

Abdinabiyeva Dildora Eshmurod qizi

Alfraganus Unversiteti Iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Kurbanov Jasurbek

Ilmiy rahbar:

Alfraganus Unversiteti Iqtisodiyot dekani: dots.v.b. PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17233586>

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat byudjeti va uning iqtisodiy siyosatdagi roli tahlil qilinadi. Davlat byudjeti moliyaviy resurslarni taqsimlash va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishning asosiy vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada byudjet siyosati vositalari, davlat xarajatlari va qarzlarning iqtisodiyotga ta'siri, shuningdek, samarali moliyaviy boshqaruv strategiyalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Davlat byudjeti, byudjet siyosati, davlat qarzi, iqtisodiy barqarorlik, fiskal siyosat, moliyaviy boshqaruv.

Davlat byudjeti mamlakat iqtisodiyotini boshqarishda asosiy moliyaviy vosita sifatida xizmat qiladi. U davlatning barcha ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarini moliyaviy ta'minlashni ta'minlaydi, infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda davlatning faoliyatini moliyalashtiradi. Shu bilan birga, byudjet siyosati orqali davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiya darajasini nazorat qilish, ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish kabi muhim maqsadlarni amalga oshiradi. Byudjet siyosati va davlat qarzlari davlatning iqtisodiy strategiyasida muhim o'rin tutadi. Byudjet defitsiti va davlat qarzlari iqtisodiyotga qisqa muddatli rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa-da, ularni noto'g'ri boshqarish uzoq muddatli barqarorlikka salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli, byudjet resurslarini samarali taqsimlash, davlat xarajatlarini optimallashtirish va qarzlarni oqilona boshqarish davlat iqtisodiy siyosatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda moliya tizimini modernizatsiya qilish, byudjet siyosatini samarali boshqarish va davlat qarzlarni nazorat qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Masalan, "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, byudjet defitsitini me'yorda ushlab turish va davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 50 foizdan oshmasligini nazorat qilish kabi vazifalar belgilangan.¹ Shuningdek, konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini kamaytirish, natijaga yo'naltirilgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug'i, 07.10.2024 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3558.

byudjetlashtirish tizimini joriy etish va soliq bazasini kengaytirish kabi amaliy chora-tadbirlar ham amalga oshirilmogda. Davlat byudjeti va iqtisodiy siyosatni o'rganish nafaqat moliyaviy resurslarni boshqarish vositalarini tushunishga, balki mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu bois, ushbu maqolada O'zbekiston misolida davlat byudjeti va davlat qarzlarning iqtisodiy siyosatdagi roli, ularni boshqarish usullari va xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Byudjet mamlakat moliyaviy resurslarini taqsimlash va ulardan foydalanishni boshqarishning asosiy vositasi bo'lsa, davlat qarzlari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va rivojlanish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda olib borilayotgan yangi iqtisodiy islohotlar davrida ham byudjet siyosati va qarzlarni boshqarish masalalariga alohida urg'u berilmogda. Bugungi sharoitda davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish, byudjet resurslarini oqilona taqsimlash hamda qarz yukining xavfsiz darajada saqlanishini ta'minlash dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Asosiy qism.

Davlat byudjeti – bu davlatning moliyaviy resurslarini markazlashtirilgan shaklda jamlab, ularni ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlar uchun taqsimlash vositasi hisoblanadi. Byudjetning asosiy vazifasi nafaqat davlat xarajatlarini moliyalashtirish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va davlat siyosatini amalga oshirish imkonini berishdir. Byudjet tizimi quyidagi asosiy elementlardan iborat:

1.Daromadlar – soliq va soliqqa tortilmagan tushumlar, bojxona yig'implari, davlat mulki daromadlari va boshqa moliyaviy manbalar.

2.Xarajatlar – ijtimoiy sohalar (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy yordam), infratuzilma loyihalari, mudofaa va boshqa davlat funksiyalari uchun ajratiladigan mablag'lar.

3.Byudjet defitsiti yoki ortig'i – daromadlar va xarajatlar orasidagi farq.

Byudjet defitsiti yuqori bo'lsa, davlat tashqi yoki ichki qarzlarni orqali mablag' jalb qiladi. Shu bilan birga, defitsitni nazorat qilmaslik inflyatsiya, pul-kredit siyosatining samarasizligi va iqtisodiy barqarorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.²

O'zbekiston kontekstida davlat byudjeti va byudjet siyosati iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Masalan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida byudjet siyosati orqali

² I. T. Jumaniyazov. 2024. "DAVLAT TASHQI QARZINI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASI". IQTISODIYOT VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA JURNALI | JOURNAL OF ECONOMY AND MODERN TECHNOLOGY 3 (6):32-43. <https://mudarrisziyo.uz/index.php/iqtisodiyot/article/view/1250>

inflatsiyani yiliga 5–6 foiz darajasida ushlab turish va davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbati 50 foizdan oshmasligini nazorat qilish ko'zda tutilgan. Bu choralar mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash va uzoq muddatli rivojlanish rejasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat byudjeti iqtisodiy siyosatning ijtimoiy yo'nalishlarini ham ta'minlaydi. Masalan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga ajratiladigan mablag' aholining turmush darajasini oshirish, ishchi kuchi sifatini yaxshilash va inson kapitalini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Davlat byudjeti bu davlatning konstitutsiyaviy funksiyalari va vazifalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun shakllantiriladigan markazlashgan pul jamg'armasi sifatida ta'riflanadi. O'zbekiston Respublikasining Byudjet tizimi tarkibiga davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari hamda byudjetdan tashqari jamg'armalar kiradi. Davlat qarzi esa mamlakat ichki manbalari yoki xorijiy moliya bozorlaridan jalb qilingan mablag'lar hisobidan yuzaga keladigan majburiyatlarni anglatadi. Ularni qayta moliyalashtirish davlatning o'z qarz majburiyatlarini yangi qarz mablag'lari jalb qilish orqali qaytarishidir. Shu bilan birga, davlat kafolati ham mavjud bo'lib, qarz oluvchi o'z majburiyatini bajara olmagan taqdirda hukumat qarzni to'liq yoki qisman qoplash majburiyatini zimmasiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksida (6-modda) byudjet tizimi keng qamrovli tushuncha sifatida talqin etilib, barcha darajadagi byudjetlar, davlat jamg'armalari hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni o'z ichiga olishi qayd etilgan. Xorijiy iqtisodchilar qarashlariga murojaat qiladigan bo'lsak, Adam Smit o'zining mashhur "Xalqlar boyligi" ("The Wealth of Nations") asarida davlat byudjeti, soliqlar va bozor mexanizmlarining o'zaro bog'liqligini ilk bor chuqur nazariy jihatdan tahlil qilgan. Uning "ko'rinmas qo'l" nazariyasi bozor iqtisodiyoti va davlat aralashuvi o'rtasidagi muvozanatni tushunishga xizmat qiladi.

Keyingi davrlarda ingliz iqtisodchisi John Maynard Keynes o'zining "Ish, foiz va pul nazariyasi" ("The General Theory of Employment, Interest and Money") asarida byudjet defitsiti va davlat xarajatlarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini asoslab bergan. Keynesning fikricha, iqtisodiy inqiroz davrida davlat xarajatlari va byudjet defitsitidan foydalanish iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, XX asrda AQSh iqtisodchisi James M. Buchanan "Public Debt and Budget Deficits" nomli asarida davlat qarzlari va byudjet defitsitining uzoq muddatli iqtisodiy oqibatlarini siyosiy-iqtisodiy nuqtai

nazardan chuqur tahlil qilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan K. Abdurahmonov, S. Ziyodullayev, Sh. Yuldashev va A. Vahobovlarning ilmiy tadqiqotlarida ham mamlakat byudjeti va davlat qarzlari masalalari keng yoritilib, ularning iqtisodiy ta'siri turli jihatlarida o'rganilgan.³

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmonida belgilanganidek, "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, energiya, suv va infratuzilma ta'minotini mustahkamlash, shuningdek, fiskal, pul-kredit va tashqi savdo siyosatlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi 2030-yilga borib inflyatsiyani 5-6 foiz darajasida barqarorlashtirish hamda davlat qarzining YIMga nisbatan 50 foizdan oshmasligini ta'minlashdir. Shu maqsadda o'rta muddatli davlat qarzini boshqarish strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, 2024-yilda konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini YIMning 4 foizidan, keyingi yillarda esa 3 foizdan oshirmaslik rejalashtirilmoqda. Bu jarayonda "natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish" tizimini keng joriy etish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq bazasini kengaytirish, raqamlashtirish va markirovkalash tizimidan samarali foydalanish kabi choralar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalarni daromadlilik darajasi va byudjetga yukini hisobga olgan holda tasniflash va boshqarish mexanizmlarini qo'llash belgilangan. Tarixiy tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, XIX asr oxirida AQSH Prezidenti U.Grant Yaponiyaga tashrifi chog'ida tashqi qarzlardan ehtiyot bo'lish zarurligini ta'kidlagan. U o'z nutqida boshqa davlatlarning tashqi qarz tufayli og'ir ahvolga tushib qolganini misol qilib keltirgan va Yaponiya imperatoriga imkon qadar tashqi qarzlardan voz kechish lozimligini maslahat bergan. Natijada Yaponiya ushbu maslahatni inobatga olib, tashqi qarzdan emas, balki ichki resurslardan samarali foydalanishga intilgan. Bugungi kunda ham Yaponiyaning tashqi qarzi yuqori bo'lsa-da (2022-yilda YIMga nisbatan 101,8 foiz), ularning asosiy qismi milliy valyutada shakllangan bo'lib, bu moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam bermoqda.⁴

Davlat byudjeti mamlakat iqtisodiyotini boshqarish, ijtimoiy dasturlarni qo'llab-quvvatlash va infratuzilmani rivojlantirish uchun asosiy moliyaviy vositadir. Shu bilan birga, agar byudjet taqchilligi yuqori bo'lsa, davlat tashqi qarz jalb etishga majbur bo'ladi. Tashqi qarz yirik loyihalarni amalga oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda ijobiy natija berishi mumkin, biroq uni

³ S.U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov. Byudjet tizimi. darslik.

⁴ I. T, Jumaniyazov. 2024. "Davlat tashqi qarzini boshqarishning xorij tajribasi". Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology 3(6):32-43.

samarali boshqarish shart. Aks holda, u mamlakat uchun katta moliyaviy xavf tug'diradi. Shu sababli tashqi qarzlarni jalb qilish va qaytarish bo'yicha uzoq muddatli, aniq strategiyaga asoslangan siyosat olib borilishi muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, davlat byudjeti va tashqi qarz O'zbekiston iqtisodiy barqarorligi uchun muhim omillardandir. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun davlat xarajatlarini oqilona rejalashtirish, tashqi qarzlarni ehtiyotkorlik bilan boshqarish va xalqaro tajribadan samarali foydalanish zarur. Ayni paytda tashqi qarzlarni bosqichma-bosqich kamaytirish hamda moliyaviy mustaqillikni kuchaytirishga qaratilgan siyosat yuritish O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug'i, 07.10.2024 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3558.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.04.2023 yildagi O'RQ-836-son.
12 I. T, Jumaniyazov. 2024. "DAVLAT TASHQI QARZINI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASI". IQTISODIYOT VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA JURNALI | JOURNAL OF ECONOMY AND MODERN TECHNOLOGY 3 (6):32-43.
<https://mudarrisziyo.uz/index.php/iqtisodiyot/article/view/1250>.
3. S.U.Mehmonov, Z.X.Karimova, A.S.Tursunov. Byudjet tizimi. darslik.
4. I. T, Jumaniyazov. 2024. "Davlat tashqi qarzini boshqarishning xorij tajribasi". Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology 3(6):32-43.